

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



KURS ISHI

Mavzu: Inson shaxsini tarbiyalashda milliy xalq o'yinlari pedagogik
muammolari

**Bajardi. Q.X.Xasanova
Qabul qildi. D.Xodiyeva**

TOSKENT 2014 yil

Inson shaxsini tarbiyalashda milliy xalq o'yinlari pedagogik muammolari

Kirish

Asosiy qism

1. Inson shaxsini tarbiyalashda o'yinlar pedagogik muammo sifatida

2. Mashg'ulotlarni pedagogik o'yinlar orqali tashkil etish omillari

3. Inson shaxsini tarbiyalashda milliy xalq o'yinlaridan foydalanish usullari

Xulosa

Adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasida o'yin orqali darslarni tashkil etish dolzarb muammolardan biridir. Didaktik o'yin ta'lim jarayonini faollashtiruvchi pedagogik usullar orasida alohida o'rin egallaydi, ta'limiy-o'yin bo'lib, u o'zida maqsadga yo'naltirilgan mutaxassislikning kasbiy faoliyatini qamrab oladigan o'zaro bog'liqlikni mujassamlashtiradi. CHet el va o'zbek yetakchi pedagoglarning tajribasi, tadqiqotlari va izlanishlari an'anaviy (imperativ) pedagogikani ta'lim sub'ektning individual sifatlarini bilim, malaka va ko'nikmalar asosida rivojlantiruvchi hamkorlik va rivojlanish pedagogikasiga almashtirilishi zarurligini ta'kidlaydi. Bu pedagogika ta'lim texnologiyasini tubdan o'zgartiradi. Uning maqsadi o'quvchining o'zlashtirish faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va faoliyatga undashdan iborat. Buning uchun o'quvchi ta'limga ijod jarayoni sifatida yondoshmog'ii va bilimlarni mustaqil egallashga intilmog'i lozim.

O'yinlar ta'lim metodining asosiy ijobiy tomoni bo'lib, quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi: birinchidan, ta'lim oluvchilar jamiyatga zarar yetkazaib qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarni qilishdan qo'rqmaydilar, aksincha qilgan xatolari asosida tajriba orttiradilar; ikkinchidan real jarayonlarning vaqti o'tishi ancha tezlashadi (masalan, hayotda bir necha yil davom etadigan voqealarni bir necha soatgacha qisqartirish mumkin); uchinchidan malakalarning mustahkamlanishi uchun u yoki bu harakatlarni bir necha marta takrorlash imkoniyati yaratiladi to'rtinchidan faoliyat "shartli" (model) holatda tashkil qilingani tufayli ta'lim oluvchilarni holatlarni kuzatish va foydaliroq yechimlarni topishga undash imkoniyati mavjud bo'ladi. O'yin faoliyati tomonidan yondoshganda didaktik ta'limiy o'yin – bu ta'lim oluvchilarning ijtimoiy va predmetli faoliyatni o'yin jarayonida, o'yin qoidalariga singdirilgan kasbiy faoliyatning shartli vaziyatlari orqali muammolarning yechimini topishda amalga oshiriladigan bilish va o'zlashtirishdir. Ta'lim faoliyatini tashkil etish nuqtai nazaridan bu murakkab pedagogik texnologiyadir, ta'limiy o'yin talabani o'quv-ta'limiy faoliyatning maxsus tashkil etishni o'zida mujassamlashtiradi.

SHulardan kelib chiqib kurs ishi mavzusini "Inson shaxsini tarbiyalashda milliy xalq o'yinlari pedagogik muammolari" deb nomladik.

Kurs ishining maqsadi - Inson shaxsini tarbiyalashda milliy xalq o'yinlarining samarali usullarini aniqlash

Kurs ishining ishining ob'ekti Inson shaxsini tarbiyalashda milliy xalq o'yinlaridan foydalanish jarayoni

Kurs ishining ishining predmeti - Milliy xalq o'yinlaridan foydalanib ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.

Kurs ishining ishining vazifasi –

- Boshlang'ich ta'lim tizimida o'yinlardan foydalanish mazmun mohiyatini ochib berish.

- Mashg'ulotlarda pedagogik o'yinlardan foydalanish omillarini o'rganish
- Milliy xalq o'yinlaridan foydalanish usullarini aniqlash

Kurs ishining tarkibi kirish, 3 qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1.Inson shaxsini tarbiyalashda o'yinlar pedagogik muammo sifatida

Bolalarni har tomonlama rivojlanishida o'yin asosiy faoliyat bo'lib hisoblanadi. O'yin — doimo hayotni aks ettiradi. Bola yoshligida qanchalik ko'p o'ynasa, u maktabda yaxshi o'qishga va keyinchalik mehnat faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'yin — bu bola faoliyatining yorqin turi, o'yin jarayonida bolaning psixik bilish jarayoni, irodasi, hissiyoti, ehtiyoji va qiziqishlari, ta'sirchanligi – uning butun shaxsiyati shakllanadi. Bola o'yinda amaliyot ehtiyojlarga qaram bo'lmaydi. Bunda bolaning bevosita ehtiyoji va qiziqishlaridan kelib chiqadi. O'yin-hayotning ajoyib inkosi bo'lib, befoydadek ko'rinsada zaruriy faoliyatdir.

O'yin o'ziga mahliyo etadigan va tortadigan hayotiy jarayon bo'lsada, ilmiy tafakkur uchun jiddiy va qiyin muammo sifatida qaraladi.

Pedagogika va psixologiyada o'yin faoliyati muammosini K.D.Ushinskiy, P.P.Blonskiy, S.L.Rubinshteyn, D. B.El'koninlar o'rganganlar. K.Gross, F.S.Hiller, G.Spenser, K.Byuler, Z.Freyd, J.Piaje va boshqa chet ellik tadqiqotchi va faylasuflar bir nazariyani ikkinchisi bilan to'ldirganlar. Ularning har biri o'zida ko'pqirrali o'yinning faqatgina bir qirrasini yoritganlar, o'yin haqida to'liq qamrovli yoritmaganlar.

K.Grossning nazariyasi alohida e'tiborga loyiq. U o'yin mazmunini kelajak jiddiy faoliyatga tayyorgarlikka xizmat qiladi deb qaraydi; inson o'yinda mashq qilib, qobiliyatini rivojlantiradi. Bu nazariyaning alohida ommalashuviga sabab bo'lgan asosiy ustunligi shundaki, o'yin rivojlanish bilan uyg'unlikda va rivojlanishda bajargan vazifasiga ko'ra mazmun kasb etadi. Asosiy kamchilik- bu nazariya faqat o'yin “mazmun” iga qaratilganligida bo'lib, u o'yinning manbai, uni keltirib chiqargan sababi, o'yinga undovchi motivlarni ochib bermaydi. O'yinni uning yakuniy maqsadga yo'naltiruvchi natijasi nuqtai nazaridan tushuntirish Gross tomonidan teleologik tasnifga ega,teleologiya sababni inkor etadi. Gross o'yin manbaini ko'rsatishda insonlar va hayvonlar dagi o'yinni biologik faktorlar va instinkt bilan bog'laydi. O'yinning rivojlanishdagi ahamiyatini yoritishda Grossning nazariyasi mazmunan tarixiylikka ziddir.Spensr F. SHillerni fikrini rivojlantirib, o'yinning manbai kuchning oshib ketishida, ya'ni hayotda, mehnatda sarflanmagan kuchlar o'yin jarayonida sarflanadi degan nazariyani ilgari suradi. Lekin sarflanmagan kuch miqdori o'ynalishni, ya'ni nega uboshqa faoliyatga emas , balki faqat o'yin faoliyatiga sarflanganini tushuntirib bera olmaydi; shu bilan birga charchagan inson ham dam olish sifatida o'yin bilan shug'ullanishi mumkin. Rubinshteynning fikricha o'yinga yig'ilib qolgan kuchlarning sarflanishi yoki ishlatilinishi sifatida yondoshuv yuzakidir, chunki o'yinning mazmunidan ayri holda uning dinamik aspekti nazarda tutilmoqda.

O'yin motivlarini ochib berishga intilib K. Byuler funktsional qoniqish (ya'ni, xarakatning natijasidan qat'iy nazar, uning o'zidan qoniqish) nazariyasini o'yinning asosiy motivi sifatida

ilgari suradi. Qoniqishga asoslangan o'yin nazariyasi faoliyat sifatida, faoliyatning gedonistik nazariyasi sifatida namoyon bo'ladi, inson faoliyatini lazzatlanish va qoniqish tuyg'usi boshqaradi. SHiller-spenserning dinamik nazariyasi ham, xarakterning o'z ichiga motivlashni olgan, ma'lum emotsional bo'yoqlarga ega bo'lgan real mazmunini e'tibordan chetda qoldiradi. O'yin uchun muhim faktorni aniqlab, bu nazariya o'yindagi faqatgina organizmni tiklash imkoniyatini ochib beradi. Nihoyat, o'yinning freyd talqinidagi nazariyasi o'yinning hayot davomida qo'llanila olmagan istaklarni amalga oshirilishini, chunki o'yinda hayotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lmagan holatlar o'ynaladi va boshdan o'tkaziladi. Alderovskiy o'yinda sub'ektning to'liq boshqara olmagan hayotidan qochish jarayonidagi kamchiliklari namoyon bo'ladi deb tushuntiradi. O'yinning ahamiyatini uning mashg'ullik va rekreativ imkoniyatlariga qarab baholash va xulosalash mumkin emas. Uning fenomeni shundan iboratki, mashg'ullik, dam olishdan u ta'limga, ijodkorlikka, davolashga, insoniy munosabatlar va ko'rinishlar tipi darajasiga ko'tarilishi mumkin. O'yin qadimda katta avlod vakillari tajribasini yoshlarga o'rgatuvchi ta'limiy metod sifatida qo'llangan. O'yin xalq pedagogikasida, maktabgacha ta'lim va maktabdan tashqari muassasalarida keng qo'llaniladi. Asosiy e'tibor ta'lim jarayonida faollikni va samaradorlikni oshirishga qaratilayotgan zamonaviy maktablarda o'yindan quyidagi hollarda foydalaniladi:

- mavzuga oid tushunchalarni mustaqil egallash va hattoki o'quv predmetining ayrim bo'limlarini o'rganishda mustaqil texnologiya sifatida;

- umumiy texnologiyaning elementi sifatida;
- dars yoki uning qismi (kirish, nazorat) sifatida;
- sinfdan tashqari ish texnologiyasi sifatida.

“Pedagogik o'yin texnologiyalari” tushunchasi o'zida bir qator metodlar guruhini, pedagogik o'yin shaklida pedagogik jarayonni tashkil qiluvchi usullarni mujassamlashtiradi. Umumiy o'yinlardan farqli ravishda, ta'limning maqsadi va unga mos keluvchi pedagogik aniq ko'rinishga va ta'lim – bilish tasnifiga ega natijani ifodalashi bilan pedagogik o'yinning o'ziga xos belgilari mavjud. darsda ta'limga nisbatan qiziqish va faollikni oshiruvchi vosita sifatida mashg'ulotning o'yin shaklda o'yin vaziyati va usulini qo'llash yordamida foydalanish mumkin. Ta'limning dars shaklida o'yin vaziyati va usulini qo'llash qo'yidagi asosiy yo'nalishlarda olib boriladi:

- o'quvchilar oldiga qo'yilgan didaktik maqsad o'yin vazifasi sifatida qo'yiladi;
- o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysundiriladi;
- o'quv materialidan u(o'yin)ning vositasi sifatida foydalaniladi ;
- o'quv faoliyatiga didaktik vazifani o'yinga aylantiruvchi musoboqa elementlari kiritiladi ;
- didaktik vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish o'yin natijasi bilan uyg'unlashtiriladi.

O'yin – kasbiy va oilaviy hayot, insoniy munosabatlar maktabidir. Uning oddiy maktabdan farqi shundaki, inson o'yin davomida ta'lim olganda nimanidir o'rganayotgani haqida

shubhalanmaydi ham. Oddiy maktabda bilim makbaini ko'rsatish qiyin emas. O'qituvchi ta'lim beruvchi sifatida. Ta'lim jarayoni monolog tarzida (o'qituvchi tushuntiradi, o'quvchi eshitadi) va dialog shaklida (o'quvchi o'qituvchiga o'zi tushunmaganlari haqida savol beradi yoki o'qituvchi o'quvchi bilimi darajasini aniqlash uchun savollar beradi) olib boriladi. O'yinda oson bilim manbai ham, o'qituvchi ham bo'lmaydi.

Didaktik o'yin mazmunan ta'lim vositasi sifatida ta'lim va tarbiyaning maqsadini amalga oshirishga xizmat qiladi, shu bilan birga ko'zlangan maqsad yo'lida aniq natijaga erishishga olib keladi. Bu afzallik shaxs faoliyatining asosiy shakllarini ma'lum vaziyatlarini o'yin sifatida modellashtirish orqali maqsadli ijtimoiy va kasbiy tajribaga ega bo'lish, natijada malaka va ko'nikmalarni egallashda shaxsiy bilimlarni faollashtirish va transformatsiyalash o'z tajriba to'planishi va rivojlanish omilidir. O'yin ta'lim metodi faoliyat jarayonining normativ modeli sifatida. Qisman, bunday model o'zida qoidalar majmuasini, o'yin azmuni va yo'nalishini, o'yin ishtirokchilarini xarakatini mujassamlashtiradi. O'yin metodi –avvalo ma'lum qoidalarga asoslangan rolni ijro etish, ta'lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan o'yinlar esa –rolli o'yinlardir. Ta'limning mazkur shaklida o'yin muammosi asosiy yo'naltiruvchi ahamiyatgaega: aynan u rolli o'yinning yadrosini tashkil qilib, o'yinning ta'limiy va tarbiyaviy asoslanganligini baholaydi. O'yinda muammo rivojlanish asosi bo'lib, rol "harakatga keltiradi", o'yin davomida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Ta'limiy didaktik o'yin – muqobil, dinamik rivojlanuvchi tashkiliy forma, o'qituvchi raxbarligida barcha ishtirokchilarning maqsadli o'zaro ta'siridir. Bu shaklning mazmuni o'yin ishtirokchilarini ular tomonidan ancha murakkab bo'lgan kasbiy va ta'limiy masalalarni imitatsion modellashtirish va rollar asosida yechish bog'liqligini birlashtiradi.

O'yin o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi: Har bir ishtirokchi o'z imkoniyatlarini yakka va boshqa ishtirokchilar bilan birgalikda chamalab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quvchilar faqatgina kasbiy vaziyatning ijodkori bo'libgina qolmay, balki o'z shaxsining "yaratuvchisi"ga aylanadilar. Ular o'z-o'zini boshqarish masalalarini hal qilish bilan birga, kasbiy muloqotga kirishishning muqobil yo'llari va vositalarini izlab topadilar, o'z kamchiliklari aniqlaydilar va bartaraf etish yo'llarini izlaydilar. O'yinga tayyorlanish jarayonida o'qituvchi, odatda, ularga o'z personajlari kabi fikrlashni tavsiya qiladi, xuddi mutaxassis singari fikrlab ko'rishga undaydi. Bu vaqtda o'quvchi verbal (og'zaki) va noverbal (imo-ishoralar tilida) muloqotdagi qiyinchiliklarni yengishni o'rganadi.

O'yin jamoa psixoterapiyasi sifatida ham ko'rib chiqilishi mumkin, chunki o'yin ishtirokchisiga jamoa muxiti, jamoa xamkorligi va qo'llab quvvatlashi ijobiy ta'sir ko'rsatadi. U turli kishilar bilan muloqotda psixologik to'siqlarni yengishni, shaxsiy sifatlarini rivojlantiradi, kasbiy faoliyatni amalga oshirishga xalaqit beradiganlarini, masalan tortinchoqlik, jaxli tezlik va shu kabilar, bartaraf etadi.

Didaktik o'yinlarga tayyorgarlik va uni o'tkazish jarayonida har bir o'quvchi o'ziga ishonch va o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi o'quvchilarga qanday darajaga erishishni istasa o'sha darajaga erishishda, muloqot jarayonida yuzaga chiqadigano'zini eng yaxshi tomonlarini namoyon etishda yordam berishi shart. Rollarni o'ynash orqali erishilgan yutuqlar ijrochida yana o'sha o'yin vaziyatlarini qayta boshidan o'tkazish, o'zida kasbi uchun zarur bo'lgan nimanidir izlab topishga undaydi.

Didaktik o'yinlar dinamik va determinantlangan "o'qituvchi-o'quvchi" va "o'quvchi-o'quvchi" tizimi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Tizimli tahlil nuqtai nazaridan u ochiq tizim bo'lib, unda ishtirokchilar faoliyati hamkorlardagi munosabatning doimiy aniqlab borilishi orqali teskari aloqadan olinadigan axborotga asoslanadi.

Ta'limiy o'yin - bu nazorat qilinadigan tizim, bunda o'yinga tayyorgarlik va o'tkazish jarayoni o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi. Agar o'yin avvaldan taxmin qilingandek davom etsa, u xolda o'qituvchi o'yin munosabatlariga qo'shilmaydi, o'quvchilarni faoliyatini chetdan kuzatadi va baholaydi. Biroq jarayoni taxmin qilingan boshqacharoq kechsa, "ruxsat etilgan chegara"dan chiqilsa, mashg'ulot maqsadini buzish havfi tug'lsa, o'qituvchi o'yinni, o'yin davomidagi hissiyotlar yo'nalishini to'g'rilashi mumkin.

O'yinga o'z-o'zini boshqaruvchi tizim sifatida ham qarash mumkin. Agar an'anaviy o'quv mashg'ulotlari o'qituvchi va o'quvchilar orasida o'qituvchi tomonidan yo'nalishni qat'iy belgilangan, o'quvchilarning ko'pgina savollariga bo'yicha to'liq ma'lumotga ega bo'lmaslikka olib keluvchi "vertikal bo'yicha" munosabatlar o'rnatilsa, didaktik o'yin jarayonida ishtirokchilar orasida "gorizontal bo'yicha" o'rnatiladi. U bir xilda axborotga ega bo'lgan hamkorlar orasida erkin, ijodiy munosabatlarga asos bo'ladi. O'qituvchi bevosita hamkorlar safidan chiqariladi, u ikkinchi planga tamoshabinlar safiga o'tadi: bu holat o'quvchi muloqti jarayonidagi psixologik to'siqni olib tashlashga yordam beradi. O'quvchi rolini shaxsiy o'zligini namoyon qilish vositalari orqali guruhda o'zining intellektual va kasbiy sifatlari ko'rsatishga intiladi.

O'yin shaklida beriladigan bilimlarning sifati asosan o'qituvchining salohiyatiga bog'liq. Guruh a'zolari bilan mustahkam va barqaror munosabat o'rnatilgan o'qituvchi o'yinni yuqori saviyada tashkil qila olmaydi. SHuning uchun o'yin shaklidagi mashg'ulotni rejalashtirishda o'quvchilarning o'qituvchiga munosabatini belgilab olish zarur, masalan anketa o'tkazish orqali, bu o'quvchilarda ishonch, o'yin faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabat, qiziqish va javobgarlik xislarini rivojlantiradi.

O'yin modelini tayyorlash. O'yinga tayyorgarlik bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liq bo'lgan ko'pbosqichli jarayondir. Didaktik o'yinni konstruksiyalash jarayonini yengillashtirish va unda moslashuvchanlikni tarkib toptirish uchun o'zida operatsiyalarni mujassamlashtirigan bloklardan iborat modul tamoyili qo'llaniladi. Har bir blok o'zining maqsadi,

vazifalari va natijalari bilan tasniflanadi. Tayyorgarlik operatsiyasi – mazkur blokda egallanishi lozim bo'lgan maqsad, vazifa va natijalarga erishish xarakatining mantiqiy asoslanishidir.

Bloklarning ixtiyoriy operatsiyasi taxminlarga tayanadi. Ishtirokchilarning o'yin harakatlari, o'yinchilarning murakkab munosabatlari jamlanishi o'yin vaziyatiga o'zgarishlarni yuzaga keltirish shubhasiz. O'qituvchi o'quvchilar faoliyati taxmin qilinganiga zid va boshqarib bo'lmaydigan tarzda kechishini oldini olish uchun o'yinni har tomonlama hisobga olgan xolda tahlil qilishi kerak. O'yin va riatnlarining qanchalik ko'p bo'lishi modelni shunchalik mukammallashuvini ta'minlaydi. O'qituvchining xato qilish imkoniyatlari kamayadi.

SHunday qilib, barcha tayyorgarlik faoliyati taxminan belgilash asosida quriladi. Didaktik o'yinga tayyorgarlik jarayonidagi taxminlar o'qituvchiga muammoli vaziyatni ko'ra bilish, o'quvchilar rollari harakatlari natijalarini ko'plab variantlarda tahlil qilish, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan tipik xatolarni aniqlash, mashg'ulotning psixologik barqarorligiga xizmat qiluvchi usullar majmuasini tayyorlash, o'yinning ishtirokchilar tarkibini hisobga olgan holda rivojlanish qonuniyatini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Didaktik o'yin o'zida ta'lim jarayonida va tajribada yuzaga chiqadigan yangiliklarni va ilg'or g'oyalarni mujassamlashtiradi va mujassamlashtirishi shart. O'yin jarayonida yangicha taktik usul va operatsiyalar turli variantlarda kasbiy faoliyatda qo'llanilishidan ancha oldin aprobat siyadan o'tadi.

Didaktik o'yin – kasbiy madaniyat analogidir: u qanchalik murakkablashib borsa, o'yin ishtirokchilari professionalligi shunchalik chuqurlashadi, professional imkoniyatlar shunchalik kengayadi. Kasbiy mehnatni samarali tashkil etuvchi va o'z fikrini jo'n bayon etishni ta'minlovchi qiziqarli o'yin ishtirokchilarni qoniqtiradi, ularda mustaqillik va faollikni ta'minlaydi, amaliy kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan bilimlar va malakalarni egallash ehtiyojini oshiradi. O'yinga jalb etish, kasbiy faoliyatni o'yin modeli asosida kasbni tizimli va yaxlit tushunish imkonini beradi. O'yinning qiziqarliligi bilimlar egallash jarayonini yengillashtiradi. Yangi bilimlarning egallanishi, o'yin davomida izlangan natijalarga erishilganini his etish, ishtirokchilarda ruhiy ko'tarinkilik uyg'otadi. Didaktik o'yinlar qoidali o'yinlar jumlasiga kiradi va rolli o'yinlarni rivojlantirish predmeti hisoblanadi. Bunday o'yinlar asosini bilishning u yoki bu mazmunini, o'yinning borishi belgilaydigan harakatlarni bajarishga qaratadigan aqliy va irodaviy urinishini tashkil etadi. Didaktik o'yinlarda asosiy fikrlash jarayonlari - tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish va hokazolar takomillashadi.

Didaktik o'yinlar ta'lim jarayonida bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'yinlar bolaning ijobiy ish faoliyatini kuchaytiradi, ixtiyoriy diqqatini, xotirasini takomillashtiradi. O'yinda o'quvchilar o'zlari sezmagan holda juda ko'p harakatlarni, mashqlarni bajaradilar, turli masalalarni yechadilar.

Didaktik o'yinlarga qo'yiladigan talablar:

1. Didaktik o'yinlar o'quv predmetlari bo'yicha dastur materialiga muvofiq yo'sinda tanlanishi lozim.
2. Didaktik o'yin unda qatnashuvchilarga bilimlar bo'yicha ma'lum talablar qo'yiladigan yo'sinda ishlab chiqilishi kerak.
3. Didaktik o'yinning muvaffaqiyatli o'tishi uning maqsadini yaqqol anglashga bog'liq. Chunki bunda o'quvchilarning fikrini maqsadli yo'nalishga solish, ularning ishini bajarishga qiziqishini oshirish imkoniyati tug'iladi.
4. O'yinlarni tanlashda ma'lum izchillikka rioya qilish ham zarur. Mazmunan qiyin o'yinlardan oldin osonroq o'yinlarni o'tkazib, o'quvchilarni navbatdagi o'yinlarga puxtaroq tayyorlash juda muhimdir. Shu tariqa tahlil, sintez, taqqoslash, tasniflashda mavhumlashtirish, muayyanlashtirish, umumlashtirish singari aqliy operatsiyalarni asta-sekin murakkablashtirib borish shart.
5. Didaktik o'yinlarning qoidasini va tashkil etilishini tuzish va ishlab chiqishda o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini, ularning turli (bo'sh va kuchli, faol va loqayd) guruhlarini hisobga olish kerak.
6. O'yinning qoidalari sodda, aniq bo'lishi va yaqqol ifodalanishi lozim.
7. Har bir o'quvchi butun o'yin jarayonida faol ishtirok etishi, o'z „navbatini“ uzoq kutish o'yinga qiziqishni susaytirishi mumkinligini unutmaslik kerak.
8. Har bir o'yinga umumiy va yakka tartibda yondashish, undagi topshiriqlarning qiyinlik darajasini va qanchasi mustaqil holda bajarilishini hisobga olish kerak.

2. Mashg'ulotlarni pedagogik o'yinlar orqali tashkil etish omillari

Inson madaniyati o'yin davrida xuddi o'yin kabi tarkib topib rivojlanadi.

I. Xeyzinga: O'yin inson faoliyatida mehnat qilish va ta'lim olish kabi muhim faoliyat qatoriga kiradi. Aniqlanishicha «o'yin - bu ayrim holatlardagi vaziyatlarni jamiyat tajribalarini o'rganishda ishlatiladigan va keyinchalik o'z odob-axloqini mukammallashtirishda ishlatiladi».

Inson amaliyotida o'yin quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- a) Xordiq chiqaruvchi: (o'yindan bahra olish, qiziqish uyg'otish)
- b) Kommunikativ: dialektik muloqotni o'rganish.
- v) O'zini biror narsaga qodir ekanligini ko'rsatish.
- g) O'yin bilan mashg'ul bo'lish (yoki o'yin orqali ovunish) turli xil qiyinchiliklarni o'yin orqali yengish.
- d) Diagnostik: o'yin davomida ba'zi bir kamchiliklarni aniqlash.

e) Millatlararo yakdil bo'lish: hamma millatlar uchun bir xil bo'lgan ijtimoiy madaniy boyligimiz (me'rosimiz) ni o'rganish.

j) Ijtimoiylashtirish: umuminsoniy axloq qonunlarini o'rganish. Ko'pchilik o'yinlarga 4 ta belgi xosdir:

1) Bolaning hohishiga qarab istalgan o'yinni tanlash. O'yin jarayonidan bahramand bo'lish.

2) Ijodiy fikr yuritish, yondoshish.

3) Ruhiy ko'tarinkilik: musobaqalashish, raqibini yengish.

4) O'yin mazmunini, mohiyatini belgilovchi qandaydir qonun va qoidalarining mavjudligi.

O'yin tarkibiga faoliyat sifatida o'yin rejasini tuzish, amalga oshirish, maqsadga erishish va natitjani analiz qilish ham kiradi. O'yinning ahamiyati yuqori ekanligini hisobga olgan holda shaxs o'zini sub'ekt deb hisoblashi kerak.

O'yin tarkibiga jarayon sifatida quyidagilar kiradi:

a) O'yinda ishtirok etuvchilar tomonidan o'zlariga olgan rollari.

b) Rollarning mohiyatini chuqurroq ochib berish uchun o'yin davomida qilinadigan harakatlar.

v) O'yin davomida ishlatiladigan predmetlar, narsalar o'rniga ularning o'rnini bosa oladigan shartli predmet yoki narsalardan foydalanish.

g) O'yinning mazmunini (mohiyati) - o'yin davomida ko'rsatiladigan shartli voqelik.

O'yindan tarbiyaning bir uslubi sifatida juda qadimdan beri foydalanishgan. Bu uslub xalq ta'limida, maktabgacha va maktabdan tashqari bolalar muassasalarida keng ko'lamda qo'llaniladi.

O'qish jarayonini o'yin o'tkazish orqali faollashtirish mumkin:

a) Mustaqil jarayon sifatida biron mavzu yoki o'quv predmetining bir bo'limi uchun.

b) Keng ko'lamdagi jarayon uchun bir element sifatida.

v) Dars sifatida yoki o'quv darsining bir qismi (kirish, tushuntirish, mustahkamlash)

g) Sinfdan tashqari ishlarning texnologik jarayonlari sifatida. «Pedagogik o'yinlarning texnologik jarayonlari» tushunchasi o'z ichiga pedagogik o'yinlarning ko'p uslubini oladi.

Pedagogik o'yin o'zining - aniq maqsadi va shunga yarasha natijasi va bu natija o'zining yo'nalishi bilan ajralib turadi.

O'yin uslublarini dars davomida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

a) O'quvchilarning oldiga didaktik maqsad - o'yinning sharti sifatida qo'yiladi.

b) O'qish faoliyati - o'yinning shartlari asosida olib boriladi.

v) O'quv materiali - uning mahsuloti sifatida ko'llaniladi.

g) O'quv faoliyatiga - didaktik masalani o'yinga aylantiruvchi musobaqa elementi kiritiladi.

Didaktik topshiriqning yaxshi bajarilishi o'yin natijasi bilan bog'liqdir.

Pedagogik o'yinlarning tasnifi.

O'yin faoliyatiga qarab:

Pedagogik jarayonning xarakteriga qarab:

O'yin uslubiga qarab:

O'quv predmetiga nisbatan:

O'yin muhitiga qarab:

Maqsadli yo'naltirishning ko'rinishlari.

a) Didaktik: dunyoqarashning kengayishi, ZUN ni amaliyotda qo'llash, bilim olish doirasini kengaytirish, mehnat va ta'lim olishni rivojlantirish.

b) Tarbiyalovchi: mustaqil bo'lishni tarbiyalash, irodani, axloqni, estetik axloqni va dunyoqarashni shakllantirish, hamkorlikda, kollektivda (jamoda) birga harakat qilishni tarbiyalash.

v) Rivojlantiruvchi: diqqatni, xotirani, nutqni, fikrlashni rivojlantirish, taqqoslashni o'rganish, analoglarni topish, ijodiy qobiliyatni, fikr yuritishni, xayolan biror fikrni olg'a surish (voobrajenie), eng optimal qarorlarni qabul qilish va o'quv ta'lim faoliyatini rivojlantirish.

g) Sotsial nuqtai nazardan: jamiyatning axloq kodeksiga, ziddiyatli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, o'zaro muloqotga va psixoterapiyaga o'rgatish.

O'yin jarayonlarining kontseptual asoslari.

a) O'yin faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini ko'rsata bilishi, biron ishni (o'yinni) qila olishga ishonchni, o'z-o'zini idora qila olishi kabi fundamental asoslarga yondoshadi.

b) O'yin - bu bolaning ichki dunyosidagi kenglik, bo'shliq (L.S.Vigotskiy)

v) O'yinga qo'shila olish qobiliyati inson yoshiga bog'liq emas, lekin turli yoshdagi odamlar uchun o'yin jarayoni har xildir.

g) bolalar o'yinlarining mazmuni soddadan murakkabga qarab (misol uchun: predmetli o'yindan odamlar orasidagi munosabatga yoki asosiy mazmuni jamiyat qonun-qoidalariga bo'ysunish kabi o'yinlar) rivojlanishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi davrda o'yin texnologiyalari:

Rolli o'yinlarga bola uch yoshlarda ko'nikma hosil qiladi. Bu yoshda bolada o'z dunyoqarashi, o'zining his-tuyg'usi shakllanadi va bu narsa bolaga kollektiv o'yinlarga qo'shilib o'ynashga va o'zini ifoda etishga yordam beradi.

Bolaning bu yoshda o'yin qonun- qoidalarini o'zlashtirishi jamiyat uchun foydali bo'lgan ishlarni qilishga, o'rgatishga yordam beradi.

Kichik maktab yoshidagi davrda o'yin texnologiyalari.

Kichik maktab yoshidagi bolalarga obrazga kirishi, o'zini yorqin ifoda qilish kabi xislatlar xosdir. Ular guruhlariga bo'linib mustaqil o'yin o'ynashga qodirlar. O'quv-ta'lim modelida muammoli vaziyatlar o'yin davomida shakllanadi va kuzatiladi. Bolalar o'yin qoidalariga qarab harakat qilishadi, o'qituvchining g'oyasi ham shakllanadi. Bu transformatsiya tashkilotchi - uning yordamchisi - o'yin qatnashchisi orasidagi natijalarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

O'yin natijalari ikki nuqtai nazardan - o'yin sifatida va o'quv o'yini sifatida qabul qilinadi. ushbu o'yin modelida bolalarning yakuniy xulosalariga: o'quvchilarning birgalikda o'yinning borishi va uning natijasi, o'yin modeli va real haqiqat orasidagi nisbat va o'quv o'yini davomidagi o'zaro munosabat asosiy rolni o'ynaydi.

Didaktik o'yinlarning natijasi birinchidan ularni doimo (sistematik) o'tkazilib turilishi, ikkinchidan bu o'yinlarning oddiy didaktik mashqlarga nisbatan bir maqsadga yo'naltirilgan bo'lishiga bog'liqdir.

O'yin texnologiyalarini alohida o'yin va elementlardan tuzish har bir boshlang'ich maktab o'quvchisining ishidir.

O'rta va katta yoshdagi maktab davrida o'yin jarayonlari.

O'tish davridagi bolalarda o'zining dunyosi, kattaroq bo'lib ko'rinish, jamiyat oldida o'zini kamol toptirish, nutq orqali o'zligini namoyon etish kabi istaklar yorqin namoyon bo'ladi.

O'quvchining faolligini ta'minlovchi pedagogik muhitni tashkil etishning turli xil jihatlari hamda ta'lim texnologiyalari mavjud bo'lib, shulardan biri esa pedagogik o'yinlar hisoblanadi. O'yin faoliyatiga qiziqish, o'quvchilarning o'zini-o'zi ifoda etish, ro'yobga chiqarish kabi ehtiyojlarini qondiruvchi, musobaqalashish orqali ta'minlanadi.

O'yinning ajoyib xususiyati shundaki, bir vaqtning o'zida o'quvchilarda rivojlanish bilan birga o'rganish jarayoni ham ro'y beradi. Pedagogik o'yin o'qitishning aniq qo'yilgan maqsadi va unga tegishli pedagogik natija bilan belgilanadi.

Hozirgi kunda pedagogik o'yinlarni ta'lim – tarbiya jarayonida qo'llash yuzasidan yagona kontseptsiya ishlab chiqilmagan. SHuning uchun uni ishlab chiqish va amalga oshirishda psixolog va pedagog olimlar fikrlariga hamda o'qituvchining shaxsiy-individual tajribalariga tayanilgan holda mashg'ulotlar jarayonida olib borilmoqda.

Pedagogik o'yinlar mohiyati kasbiy faoliyatda ijtimoiy va predmetli mazmunni tiklovchi shakl hisoblanib, u aniq mehnat turiga taa'lluqli bo'ladi va o'zaro aloqalar tizimini modellashtiradi. SHu bilan birga pedagogik o'yinlar o'quv jarayonining aniq sharoiti va dinamikasini tiklovchi taqlidli modellar asosi bo'lib, uning qatnashchilari uchun o'yinli faoliyat hisoblanadi.

Pedagogik o'yinni amalga oshirish va uni pedagogik boshqarish jarayonida o'qituvchidan xizmat ko'rsatilayotgan masalalar bo'yicha faqat ma'lum nazariy bilimlarnigina emas, balki tahlil

etilayotgan hodisalarning g'oyaviy, ahloqiy jihatlarini ochib berish ko'nikmalarini, hal etilayotgan muammoning asosiy burilishlarini oldindan bilish, jamoa bo'lib izlashni boshqarish, o'quvchilar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalarini to'g'ri umumlashtirish hamda yakuniy xulosa chiqara olish qobiliyatini talab qiladi. Muammoni muhokama qilish jarayoni esa o'quvchilarda jiddiy raqobat tusini olmasligi (nizolarga aylanmasligi), salbiy aks ta'sirni uyg'otmasligi kerak.

O'yinning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining o'yinni o'tkazilishiga tayyorgarligi bilan belgilanadi. U o'yinni tashkil etish bo'yicha ma'lum bilimlar doirasiga ega bo'lishi, o'quvchilarning bir-birlariga nisbatan ishonch va samimiy munosabatda bo'lishni yaratishga yordam beruvchi kommunikativ sifatlarga ega bo'lishi, o'quv-bilish muammolarini qo'ya bilish hamda o'yinning butun kechish yo'lida uni yechishga qiziqishni qo'llab-quvvatlab turish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

O'qituvchi o'yin jarayonida, odatda yetakchi, ish yurituvchi vazifasini bajarib, uni pedagogik boshqarishda quyidagi ishlarni amalga oshirish lozimligini ko'rsatiladi:

- o'quvchilarga o'yinni o'tkazish tartibi to'g'risida yo'riqnoma berish, aniq maqsad qo'yish, qo'yilgan vazifalarni sharxlab o'tish;

- o'yin tartibini va hakamlik qoidalarini o'rnatish, ularni barcha qoidalari yuzasidan xabardor qilish;

- o'yinni boshlashdan oldin oldin hakam a'zolari bilan tushuntirish suhbatini o'tkazish, ularning roldagi harakatlarini aniqlashtirish, o'yinni tashkil qilish xususiyatlari va qoidalari bilan tanishtirish;

- yordamchi o'yin vositalari (turli rangdagi jarima kartochkalari, natijalar tablosi va x.k.)ning tayyorligini tekshirish;

- o'yin davomida o'yinni olib borish tartibi buzilmasligini, tartibga rioya qilinishini kuzatish;

- o'yinga umumiy rahbarlikni amalga oshirish, jamoalarning va alohida ishtirokchilarning harakatlarini tuzatish va yo'naltirib borish;

- o'quvchilarning o'yindagi o'zaro ta'sirlashuvlarini (harakatlarini) o'yin davomida baholab borish; o'yin ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan barcha tayanch masalalarni ko'rib chiqish;

- o'quv muammosini hal qilib borishni nazorat qilish va jamoaviy izlashga tuzatish kiritish;

- o'yin tugagach natijalarni tahlil qilish, alohida o'quvchilarning, umuman jamoalarning faoliyatlariga xolis baho berish;

Bundan tashqari, o'quvchilarning o'yin jarayonida o'yin shartlarida ko'zda tutilgan harakatlar bilan birga rejalashtirilgan jarayonga to'sqinlik qiluvchi ya'ni, o'yinning pedagogik maqsadlarini o'zgartiruvchi harakatlar ham vujudga kelishi mumkin. Ana shunday vaziyatlarda o'qituvchidan yuqori darajadagi mahorat hamda turli vaziyatlarda o'zini boshqara olish qobiliyati ham talab etiladi.

Demak, pedagogik o'yinlardan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish o'quvchilarning o'quv jarayonida faol qatnashishini ta'minlashi va ularning kasbiy-pedagogik faoliyat asoslarini egallashda yetakchi o'rin tutadi.

3. Inson shaxsini tarbiyalashda milliy xalq o'yinlaridan foydalanish usullari

O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida maktab yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni aqliy, axloqiy, ruhiy, ma'nan, jismonan va estetik jihatdan tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada birinchi navbatda oilada bolalarni har tomonlama tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratish lozim.

O'yin - bolalarning har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi hamda asosiy faoliyat turi hisoblanadi. O'yin - uzoq davrlardan beri, mashhur olimlar, pedagog-psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o'ziga qaratib kelgan.

Xalq pedagogikasi chuqur o'rgatilganda, mutafakkirlarning farzand ta'lim tarbiyasi va odob – axloqqa oid asarlarida, o'zbek xalqi bolalarni tarbiyalashda tarbiyaviy ishning eng ta'sirchan uslubi - o'yin shaklidan juda keng foydalanganligini ko'ramiz. Bola tarbiyasida o'yinning o'ziga hos xususiyatlari va turlari mavjud. O'yin mazmuni va tashkiliy ko'rsatkichi darajasiga ko'ra: xalq milliy harakatli o'yinlari, ijodiy o'yinlar, harakatli o'yinlar, ermak-ovutmachiq o'yinlar, sanamalar xalq og'zaki ijodidagi o'yin turlari mavjud.

O'zbek xalqi bolalarni tarbiyalashda an'anaviy o'yin turlaridan, (o'g'il va qiz bolalarni o'ziga xos xususiyatlarini tarbiyalashda) tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanganlar. O'g'il bolalarni uddaburon, chaqqon, topqir, qizlarni mehr-shavqatli, uy ishlariga kirishimli qilib tarbiyalangan. O'larni hayotga, turmushning og'ir yengil sinovlariga tayyorlab borishga katta e'tibor qaratilgan. Bunday jarayonlarda ota-onaning shaxsiy namuna bo'lishi, mehnatga chiniqtirishi, mehnatga o'rgatish kabi tarbiya shakllaridan unumli foydalanilgan.

O'yin – doimo hayotni aks ettiradi. O'yin o'zining kelib chiqishiga ko'ra, yo'nalish va mazmuniga ko'ra ijtimoiy voqelik hisoblanadi. O'yin jarayonida bolaning psixik bilish jarayoni, irodasi, xissiyoti, ehtiyoji, qiziqishlari, ta'sirchanligi – uning butun shaxsiyati shakllanadi. Bola o'yinda amamliy ehtiyojlarga qaram bo'lmaydi. Bunda u o'zining bevosita ehtiyoji va qiziqishlaridan kelib chiqadi. Bolalarning o'yinlari o'zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Bolalar mustaqil ijodiy o'yinlarni ko'proq o'ynaydilar. Bu o'yinlarni bolalar o'zlari o'ylab chiqadilar. Bolalar o'z taassurotlari, ko'rgan-eshitgan, his qilgan narsalarga nisbatan o'z munosabatlarini aks ettiradilar. Bolalarning ijodiy o'yinlarini mazmuni va syujetiga ko'ra 3 guruhga bo'lish mumkin.

1. Maishiy o'yinlar – bunda bola oila va boshqa joylarda bo'layotgan voqelikni aks ettiradi. Bunda bolalar buva-buvi, ota-ona, aka-ukalalarining munosabatlarni aks ettiradilar. Kattalarning xatti-harakatlariga, so'zlashish madaniyatiga taqlid qiladilar, ota-ona rolini ijro etadilar.

2. Mehnat mavzusidagi o'yinlar - bunda oiladagi kattalar mehnatida ishtirok etishlari o'z o'ziga xizmat (mustaqil kiyinib-echinishlari, o'yinchoqlarni joy-joyiga taxlab qo'yishlari, uy yumushlariga yordam berishlari, uyni supurish, pol artish, hovliga suv sepish, gullarni tagini yumshatish, suv quyish, o'z xonasi anjomlarini to'g'ri saranjomlash) va boshqalar.

3. Ijtimoiy o'yinlar – bu o'yinlarda bolalar «O'qituvchi», «Vrach», «Quruvchi» o'yinlari orqali kasb - hunar haqidagi tasavvurlari va tafakkurlari shakllanib boradi.

O'yinda kattalar turmushiga, ishlariga, jamiyatdagi xulq atvor me'yor qoidalariga ijobiy munosabat shakllantiriladi. Bolalarning aqliy jihatdan tarbiyalashda ijodiy o'yinlarning roli kattadir. Bola o'ynayotganda xayol qiladi, voqea-xodisalarni xayolan ularni kayta tiklaydi. O'yinning xayoliy vaziyati bolaning aqliy faoliyatining rivojlanishiga doimo ta'sir ko'rsatadi. O'yinning san'atga yaqinligi syujetli rolli o'yinlardan estetik tarbiyada foydalanish imkonini yaratadi. Bola o'yinidagi ijodkorlik bilan bog'liq bo'lgan tuyg'ular estetik tuyg'ularga yaqin turadi. O'yinda bolaning katta harakat tajribasi shakllanadi. Turli harakatlarni rivojlantirish va takomillashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi, bola rolga kiradi, o'z rolga oida xatti-harakatlarni amalga oshirish uchun bu harakatlardan foydalanadi, tasvirlayotgan rollarning o'ziga xos xususiyatlarini ongli ravishda ifodalanadi.

Ikki yoshdagi bolalar hayotida syujetli o'yinchoqlar bilan juda oddiy o'yinlar o'tkaziladi. Bolalar bu o'yinchoqlarni qo'lda ushlab yuradilar, siqib ko'radilar, yerga tashlab ko'radilar, o'yinchoqlarni g'ildiratadilar, o'yinchoqda nima tasvirlanganligiga e'tibor bermaydilar. Bu yoshda kundalik hayotda tevarak – atrofdagi katta kishilar va bolalar harakatni kuzatib borishni, bu harakatlarni o'z o'yinlarida aks ettirishni o'rgatish lozim: qo'g'irchoqni ovqatlantirish, uyquga yotqizish va boshqalar.

Uch yoshga qadam qo'ygan bolalar bilan suhbatlar, kuzatishlar o'tkazish, xikoya va ertaklar o'qib berish, maslahat berish va o'yinlarga qiziqtirish kerak. O'yinda bolalarni katta ish-harakatining faqat tashqi tomonigagina taqlid qildirmay balki ularni odamlarga, mehnatga bo'lgan munosabatlariga ham taqlid qildirish, bolalarda axillik bilan o'ynay olish, rollarni taqsimlay bilish, ko'zlangan maqsadga erisha olish, tortinchoq va uyatchang bolalarga loyiq rollarni taklif qilib, ularning o'yinga qo'shilishiga yordam berish malakasini tarkib toptirish.

Katta yoshli bolalar hayotida harakatlar qatorida xilma xil ijtimoiy munosabatlar, xatti - harakatlar ham aks eta boshlaydi. O'yinlar mavzusi doirasini kengayishi, ular mazmunining teranlashuvi, o'yin shakli va tuzilishining o'zgarishiga olib keladi.

O'yinning mazmun va mohiyatiga ko'ra: tayyorgarlik davri, o'yinga kirishish, o'yindagi harakatlarni muhokama qilish, asosiylarini belgilab olish. Bu jarayon o'yin mazmunini to'laroq ifoda eta olishga, o'zaro iliq munosabatlarini o'rnatishda, kelishib olishga yordam beradi. O'yinni rivojlantirish uchun o'yinga qo'yiladigan talablar mazmunini o'zgartirish kerak. O'yin vaziyatini tanlash, o'yinga rahbarlik qilayotgan ota-onaning mahoratiga, qiziqishiga bog'liqdir. bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash ishiga o'z hissalarini qo'shgan bo'ladilar.

Xulosa qilib aytganda ota-ona oilada bolalarning ijodiy qobiliyatlarini va mahoratlarini o'stirish maqsadida uyinlardan maqsadli foydalansa bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash ishiga o'z hissasini qo'shgan bo'ladilar.

Syujetli-rolli o'yinlarda xatti-harakatlarni qoidalarini egallash asosida, rolda mujassamlashtirilgan axloqiy qoidalar ham o'zlashtiriladi. O'yinda kishilar turmushiga, ishlariga, jamiyatdagi xulq-atvor me'yor va qoidalariga ijobiy munosabat shakllantiriladi. Xuddi shu jarayonda o'yin muomala madaniyatini shakllantirish vositasi sifatida ham yuzaga keladi. Aqliy tarbiyaning asosiy vositalaridan biri bu syujetli o'yin hisoblanadi. Atrof muhitdagi voqea va xodisalarni aks ettirib, xayolan ularni qayta tiklaydi. O'yinning xayoliy vaziyati bolaning aqliy faoliyatining rivojlanishiga doimo ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshda bolalar o'yin faoliyatini o'zlashtira borib ijtimoiy qadrlil va ijtimoiy baholanuvchi faoliyatga tayyorlana boshlaydilar. Maktabgacha ta'lim tizimida qo'llaniladigan pedagogik o'yinlarni quyidagi turlari mavjud:

1. Bolalar kayfiyatini ko'taruvchi o'yinlar.
2. Hamkorlikka chorlovchi o'yinlar.
3. Bolalar o'zligini namoyon etishga chorlovchi o'yinlar.
4. Bolalarda o'ziga ishonch hissini shakllantiruvchi, jismoniy va intellektual muommolarni yo'qotishga qaratilgan o'yinlar.
5. Maktabgacha bolalar xatti harakatidagi cheklanishlarni tavsiflash (diagnostika) o'yinlar.
6. Bolalar shaxsi strukturasiiga ijobiy korrektsiyalar beruvchi o'yinlar.
7. Millatlararo bag'ri kenglikni shakllantiruvchi o'yinlar.
8. Bolalarda ijtimoiy, jamoaviy munosabatlarni shakllantiruvchi o'yinlar.

Ikki yoshdagi bolalar hayotida syujetli o'yinchoqlar bilan juda oddiy o'yinlar o'tkaziladi. Bolalar bu o'yinchoqlarni qo'lda ushlab yuradilar, siqib ko'radilar, yerga tashlab ko'radilar, o'yinchoqlarni g'ildiratadilar, o'yinchoqda nima tasvirlanganligiga e'tibor bermaydilar. Bu yoshda kundalik hayotda tevarak – atrofdagi katta kishilar va bolalar harakatni kuzatib borishni, bu harakatlarni o'z o'yinlarida aks ettirishni o'rgatish lozim: qo'g'irchoqni ovqatlantirish, uyquga yotqizish va boshqalar.

Uch yoshga qadam qo'ygan bolalar bilan suhbatlar, kuzatishlar o'tkazish, hikoya va ertaklar o'qib berish, maslahat berish va o'yinlarga qiziqtirish kerak. O'yinda bolalarni katta ish-harakatining faqat tashqi tomonigagina taqlid qildirmay balki ularni odamlarga, mehnatga bo'lgan munosabatlariga ham taqlid qildirish, bolalarda ahillik bilan o'ynay olish, rollarni taqsimlay bilish, ko'zlangan maqsadga erisha olish, tortinchoq va uyatchang bolalarga loyiq rollarni taklif qilib, ularning o'yinga qo'shilishiga yordam berish malakasini tarkib toptirish.

Katta yoshli bolalar hayotida harakatlar qatorida xilma xil ijtimoiy munosabatlar, xatti - harakatlar ham aks eta boshlaydi. O'yinlar mavzusi doirasini kengayishi, ular mazmunining teranlashuvi, o'yin shakli va tuzilishining o'zgarishiga olib keladi.

O'yinning mazmun va mohiyatiga ko'ra: tayyorgarlik davri, o'yinga kirishish, o'yindagi harakatlarni muhokama qilish, asosiylarini belgilab olish. Bu jarayon o'yin mazmunini to'laroq ifoda eta olishga, o'zaro iliq munosabatlarini o'rnatishda, kelishib olishga yordam beradi. O'yinni rivojlantirish uchun o'yinga qo'yiladigan talablar mazmunini o'zgartirish kerak. O'yin vaziyatini tanlash, o'yinga rahbarlik qilayotgan pedagogning mahoratiga, qiziqishiga bog'liqdir.

Syujetli rolli o'yinlarga rahbarlik qilish quyidagi asosiy bosqichlarda amalga oshiriladi.

1-bosqich. Bolalarning qiziqishlarini, ulardagi sujetli o'yinlar rivojlanishi darajasini o'rganishning asosiy vositasi quyidagilar:

- bolalar o'yinlarini kuzatish,
- o'yin rivojining asosiy yo'nalishlari, o'yin mavzusi, o'yin mazmuni, bola o'yin faoliyatining rivoji, o'yinda o'zaro munosabatlarning rivojlanishi bo'yicha tavsifnoma tuzish; - o'yinga rahbarlik maqsadini aniqlash.

2-bosqich. Kattalarning o'yin mavzusi va mazmuniga ta'sir etishi:

- o'yin mavzusi bo'yicha sayohat va maqsadli sayrlar,
- suhbatlar,
- badiiy asarlar va xikoyalar o'qib berish,
- illyustrativ rasmlar ko'rsatish,
- mavzu bo'yicha turli mashg'ulotlar,
- tasviriy faoliyat mashg'ulotlari.

3-bosqich. O'yinga tayyorgarlik (o'yin o'ynash uchun maxsus joy, o'yinchoqlar va o'yin materiallari).

- tayyor o'yinchoqlarni tanlash,
- qo'lda yasalgan o'yinchoqlar.

Bunda bolalarning mustaqil shug'ullanishlari uchun o'yin zonasini tashkil etish.

4–bosqich. Bolalarni o'ynashga o'rgatish (o'yin jarayoni va boshqa narsalarni o'yinda aks ettirish)

- o'yinchoq va uning o'rnini bosuvchi buyumlar ta'sirini o'rganish,
- o'yinda xayoliy tasavvurlarni aks ettirishga o'rgatish,
- o'yinda so'zlardan foydalanishga o'rgatish,
- o'yinda harakatlarni hisobga olish malakalarini shakllantirish,
- so'z va harakat,
- harakat va o'yin materiali,
- so'z, harakat va o'yin materiali - o'yinning tili hisoblanadi.

5–bosqich. O'yinda axloqiy munosabatlarga ta'sir etish, bolalar jamoasi, xulq-atvor madaniyat, o'yin faoliyatida, o'yin madaniyatini shakllantirish,

- ma'lum o'yin mavzusiga nisbatan bolalarning xis-tuyg'ularini uyg'otish,
- bolalarga o'yinni avvaldan rejalashtirish elementlarini o'rganish,
- o'yinda rol va o'yinchoqlarni oqilona taqsimlashga o'rgatish,
- tengdoshlari bilan do'stona ahil o'ynay olish madaniyatini tarbiyalash.
- ahil jamoani shakllantirish: mustaqil o'ynash va o'yinni oxiriga yetkazish, o'yin jarayonidagi kelishmovchilik, baxslarni oqilona xal eta olish malakalarini tarbiyalash,
- kattalarning o'yinga ta'sir etishi – maslahat berishi, tushunchalarini to'ldirish, o'yinga to'laqonli yordam berish.
- bolalarning o'yin faoliyatlarini, axloqiy munosabatlarni baholash.

Sahnalashtirish o'yinlarining o'ziga xos xususiyatlari.

Sahnalashtirish o'yinlari bu – bolalarning mustaqil ijodiy o'yin turi bo'lib, unda badiiy asar va xikoyalar bolalar tomonidan rollarga bo'lib ijro etiladi. Bu o'yinlar – bolalarda iroda, intizom va o'z xatti - harakatlarini boshqara olish, boshqalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobiy ma'naviy xislatlar shakllana boradi.

Sahnalashtirish o'yinlarida bola o'yin jarayoniga kirib boradi, voqea va ertak qahramonlarining ichki hayotiga bevosita aloqador bo'lgan qahramonlik, jasurlik, mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi ijobiy fazilatlarni o'zlarida yaqqol namoyon qiladilar. Bu jarayonda bolalarning nutq faolligi, lug'at boyligi, dunyoqarashi kengayib boradi.

Sahnalashtirish uchun badiiy asar, ertaklar tanlash katta yoshdagilardan bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, istaklarini hisobga olishni talab etadi.

Adabiy asarlarni tanlashda quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Asar mazmunining g'oyaviy-ma'naviy barkamolligi;
2. Asarning badiiy jihatdan mazmundorligi;
3. Asardagi qatnashchi va rollarning soni qancha ko'p bo'lsa, shuncha asar ahamiyatlidir;

4. Asarda mazmun yaxshi bo'lishi bilan birga, harakatlarning turi ham ko'p bo'lishi lozim;

5. Asarni ifodali o'qishga mos bo'lishi;

6. Asar mazmuni qiziqarli, hayot bilan bog'langan bo'lmog'i lozim.

Bolalar xalq ertaklarining sahnalashtirishni yaxshi ko'radilar. Masalan: «SHolg'om», «Zumrad va Qimmat», «Bo'g'irsoq» va boshqalar.

Bolalar boshqa xalq ertaklarini ham turli usullarda qo'g'irchoq, soya, stol teatri orqali sahnalashtirishga ehtiyoj sezadilar.

Badiiy asarni eslab qolishlari uchun uni qayta o'qib berish, sahna ko'rsatish, rasmlar namoyish etish, didaktik o'yinlardan foydalaniladi.

Sahnalashtirish o'yinlari qiziqarli o'tishi va uzoq vaqt davom etishi uchun keraakli jihozlar tayyorlanishi va unga to'g'ri rahbarlik qilinishi kerak. Kattalar-o'yin rejissyori rolini amalga oshira borib, bolalar xatti-harakatlarini, qobiliyatlari, intilishlari hisobga olib boradi. O'yinda faol ishtirok etgan bolalarni alohida rag'batlantiriladi, kelgusida qaysi asarlarni sahnalashtirish kerakligini aniqlaydi.

Bolalarni ijodiy qobiliyatlarini yanada takomillashtirishda - qurilish materiallari bilan o'tkaziladigan o'yinlarning roli kattadir.

Pedagogika sohasida qurish-yasash o'yinlariga pedagoglardan Z.V.Lishtvan, V.G.Nechaeva tadqiqotlarida bu o'yinlarning o'ziga xos tomonlari va ahamiyatini yoritib berganlar.

Qurish – yasash o'yinlari bolada buyum obrazini fazoviy ifodada tasvirlashni talab qiladi. O'yin jarayonida biror bir material yoki buyumning xajmi, katta-kichikligi, bir-biriga mosligi, fazoviy mo'ljallay olish ko'nikmasi shakllanadi, rivojlanadi.

Qurish – yasash o'yinlari bolalarda kuzatuvchanlikni, buyumlarni fazoviy joylashtira olish, maqsadga erisha olish kabi faoliyatlarga o'rgatadi.

Ishbilarmon o'yinlar.

Ishbilarmon o'yinlarda kompleks masalalarni hal qilishda: yangi materialni o'zlashtirishda va uni mustahkamlashda foydalaniladi va uning ijodiy qobiliyatlarini o'sishida yordam beradi. Umuman olganda o'quv materialini o'quvchilar tomonidan turli pozitsiyalardan qarab yaxshiroq o'rganishga yordam beradi.

O'xshatma o'yinlar.

Bu o'yinlarda biror tashkilot yoki uning bo'limi, odamlarning konkret faoliyati rejani analiz qilish, majlis o'tkazish kabi o'xshatishlar, vaziyatlar o'ynaladi va bu vaziyatlarning hodisa sodir etilayotgan joy (rahbarning kabineti, majlislar zali) o'xshatma qilinadi. O'yin stsenariysi o'z

ichiga voqea syujetidan tashqari o'xshatma jarayonlari va ob'ektlarning tarkibiy tuzilishini ko'rsatishni ham oladi.

Tezkor o'yinlar.

Bu o'yinlar maxsus masalalarni hal qilishda, masalan: insho yozish uslubida, biron masalani hal qilishda yordam beradi. Bu o'yinlar haqiqatga yaqin o'xshatish sharoitlarida o'tkaziladi.

Rollarni ijro etish.

Bu o'yinlarda konkret shaxsning xarakatlari, qiliqlari, vazifasi kuzatiladi va rol orqali ifoda etiladi. O'yin davomida o'quvchilar tomonidan rollar taqsimlanib model p'essa holat amalga oshiriladi.

Ishbilarmon teatr. Bu o'yinda biror holatda insonning xatti-hakatlari ifoda qilinadi. Bu yerda o'quvchi o'zining tajribasidan foydalanib obrazga kirish, uning xatti-harakatlarini tushunish, holatini to'g'ri baholab o'zini to'g'ri tuta bilishi lozim. Bundan tashqari ushbu sahnalarda o'quvchi o'z xatti-harakatlariga to'g'ri baho berishi boshqa ishtirokchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ular bilan muloqotda bo'lishi kerak. Ushbu sahna uchun, konkret holat uchun ishtirokchilarni xatti-harakatlari yozilgan stsenariy bo'ladi va o'yin shu stsenariy asosida olib boriladi.

Kasbni rivojlantirish o'yinlari: har xil o'yinlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, oliy o'quv yurtgacha va oliy o'quv yurtining boshlang'ich pallalarida quyidagi o'yinlarni qo'llash to'g'ri bo'ladi: — representativ, professional faoliyatga bog'liq xolatlar:

- variantiv, uning asosiy vazifasiga mazkur faoliyaga variant tanlash kiradi; ya'ni — muamolik, o'qituvchining ish faoliyatini o'rganishga mo'ljallangan hamda asosiy masalalarni yechishga qaratilgan;

- moslashuv, ma'lum bir masalani yechish usuli qo'llaniladi, lekin bu usul yakuniy hisobda konkret pedagogik faoliyatga moslashishi kerak bo'ladi;

- evristik, professional masalaga mustaqil, originallik bilan yangicha yondoshishi; masalan, dars jarayonining metodik tahlili; alternativ reja tuzish. Bunday izlanishlar shuni ko'rsatdiki, o'yin modellashtirilishda o'quv faoliyati ijodiy o'quv faoliyatiga o'tadi. O'yin modellashtirilishi bolaning fikrlash doirasini kengaytiradi va kelgusi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

